

OG'ZAKI NUTQDA QO'LLANUVCHI MURAKKAB ERGASH GAPLI QO'SHMA
GAPLAR

Bakirova Elnora Anvarovna

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
(Farg'ona tumani 1-umuta'lim maktabi o'qituvchisi)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15798598>

Annotatsiya: Maqolada og'zaki nutqda qo'llanuvchi murakkab ergash gapli qo'shma gaplar, ularning ko'rinishlari misollar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: murakkab sintaktik butunlik, murakkab ergash gaplarda qiyoslash munosabati, sintaktik kategoriyalar, topishmoqlarda murakkab ergash gap.

Abstract: This article analyzes complex compound sentences with subordinate clauses used in oral speech, along with their various forms, illustrated by examples.

Keywords: complex syntactic unity, the comparative relationship in complex subordinate clauses, syntactic categories, and complex subordinate clauses in riddles.

Аннотация: В статье анализируются сложноподчиненные предложения, используемые в устной речи, и их формы, на основе примеров.

Ключевые слова: сложная синтаксическая целостность, сравнительные отношения в сложноподчиненных предложениях, синтаксические категории, сложноподчиненные предложения в загадках.

Nutq uslublari ifoda vositalari sistemasining muayyan aloqa doirasida maqsadga muvofiq tanlash natijasida tarixan tashkil topgan nutq ko'rinishlaridir [1.8-bet].

Nutq ko'rinishlarining asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda nutq uslublari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. So'zlashuv uslubi.
2. Rasmiy uslub.
3. Ilmiy uslub.
4. Publitsistik uslub.
5. Badiiy uslub.

Tilshunos olim V.Muratov o'zining ilmiy asarida: "Har bir funksional stilning alohida grammatikasi yo'q", - deb yozadi [2.37-bet].

Akademik V.Vinogradov o'z asarida stilistik sintaksisning asosini murakkab sintaktik butunlik qurilishi masalalari tashkil qilishini ta'kidlaydi [3.764-bet].

O'zbek tili nutq uslublari o'ziga xos sintaktik kategoriyalar bilan ajralib turmasa ham, lekin ularda sintaktik konstruksiyalarning ishlatilish darajasi bilan stillar bir-biridan farqlanadi.

Gapning tugallangan fikr anglatishi – matndagi boshqa gaplar bilan bog'liq. Nutq oqimidan ajratib olingan gaplar grammatik mustaqilligini saqlaydi, biroq fikran tugal bo'lmaydi, ya'ni mustaqilligi nisbiydir. Zero, I.Popova aytganidek: "Gapni qo'llanish sharoitidan ajratib qarash, ya'ni uni real mavjudligi sharoitida qaramaslik til ustidan zo'ravonlik qilishdan boshqa narsa emas [1.14-bet]."

Fikran va sintaktik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan gaplar birlashmasi murakkab sintaktik butunlik deyiladi. Bunda fikr gapga nisbatan to'liq ifodalanadi. Bu butunlik matn tarkibida

mazmunan gapga xos bo'lmagan mustaqillikka ega bo'ladi. Uning qismlari orasida to'xtam qo'shma gap qismlari orasidagiga nisbatan cho'ziqroq bo'ladi [1.223-bet].

Murakkab ergash gapli qo'shma gaplarni o'rganish sintaktik tushunchalarni, jumladan, gap haqidagi ilmiy qarashlarni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, boshqa gaplar bilan semantik va grammatik jihatdan bog'liqligini ifodalaydi. Quyida biz murakkab ergash gapli qo'shma gaplarning og'zaki nutq uslubida qo'llanishini misollar asosida ko'rib chiqamiz:


Kundalik hayotda, oilada, ko'cha-ko'ya, ish joylarida kishilarning o'zaro fikr almashish jarayonida foydalanadigan uslubi bu og'zaki nutq uslubidir. Nutqning qisqaligi, ravonligi va ta'sirchanligi bu nutq uslubining o'ziga xosligini belgilab beradi. Til birliklarini tanlash va ularni qo'llashda boshqa uslublarga nisbatan erkinlik ustun turadi. Buning asosiy sababi shundaki, suhbatdoshlar orasida rasmiylik bo'lmaydi, imo-ishoralar orqali ham o'z fikrlarini bayon eta oladilar. Og'zaki nutq sintaksisi nutq vaziyatida shakllangani uchun suhbatdoshlar bir-birlarining fikrlarini oson va tez tushunadilar.

Og'zaki nutqda qo'llanuvchi qo'shma gaplar fikrni tez payqay olish va tushunishga katta yordam beradi [1.47-bet]. Izlanishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, og'zaki nutqda murakkab ergash gapli qo'shma gap ko'rinishlari kam miqdorda bo'lsa-da, uchrab turadi:

1. Topishmoqlarda fikriy yaxlitlikni ifodalash maqsadida ishlatiladi:

Ul nadurkim, qonga o'xshash, qoni yo'q,

Ichidagi bolasining soni yo'q. (Topishmoq)




2. Og'zaki nutqda murakkab ergash gapli qo'shma gaplar fikrni to'liq yetkazishga yordam beradi: *Aytmoqchimanki, otam boshqalarga xizmat qilishni burchi deb bildi va bir umr shu qoidani buzmay yashadi.* (So'zlashuv nutqidan)



3. Murakkab ergash gapning bosh gap o'rtasida kelishi, asosan, og'zaki nutqda uchraydi: *Dadam: "Qo'shning tinch – sen tinch", - deb ko'p aytadilar.* (So'zlashuv nutqidan)



4. Nutqda qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar murakkab ergash gaplarni hosil qiladi: *Moy aynisa, tuz soladi, tuz aynisa, ne soladi, degan gap bor.*



Murakkab ergash gapli sintaktik konstruksiyalar uslubiy jihatdan xoslangan bo'lib, asosan, yozma nutq uslubida keng qo'llnadi. Murakkab ergash gapli qo'shma gaplarni o'rganish natijasida tegishli bir tilga xos fikr ifodalash imkoniyatlari aniqlanadi. Murakkab sintaktik konstruksiyalarga xos stilistik xususiyatlarni o'rganish til va nutq madaniyatining taraqqiy etishi va hamda takomillashuviga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент, 1983.
2. Муратов В. Об основных проблемах стилистики. М., 1957.
3. Виноградов В. Русский язык. 1947.
4. Попова И. Неполные предложения в совр. рус. языке. труды Института языкознания АН СССР, 1953.
5. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент, 1983.
6. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. Тошкент. 1990.